



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

# **FOTONIKANING ZAMONAVIY MASALALARI**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV - USLUBIY  
MAJMU'A**

# **2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“Fotonikaning zamonaviy masalalari”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA**

**Toshkent – 2023**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2023-yil 11-avgustdagi 4-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va  
dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchilar: O‘zMU, “Fotonika” kafedrası mudiri, f.-m.f.n.  
T.Axmadjanov.**

**Taqrizchilar:**

**O‘quv -uslubiy majmua O‘zbekiston milliy universiteti Kengashining qarori  
bilan nashrga tavsiya qilingan (202\_-yil \_-dekabrdagi № \_-sonli baènomasi)**

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	<b>9</b>
<b>III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>14</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>40</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>41</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>46</b>
<b>NAZORAT SAVOLLARI.....</b>	<b>48</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta‘lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejaları asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma‘naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta‘limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta‘lim sifatini ta‘minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo‘llanishi, fotonikaning zamonaviy masalalari bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

## **Malakaviy attestatsiya**

### **Kursning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

**“Fizika”** yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

- o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

**“Fizika”** yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

### **Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- fotonika tarixini;
- lazer fizikasi va fotonika asoslarini;
- fotonika usullari va asosiy yo'nalishlarini;
- optika, spektroskopiya, fotonikani;
- nurdiod, lazerli diodlarni;
- kvant teleportasiyani;
- kvant interferensiyani
- optik giroskoplarni
- kremniyli fotonika, Nanoskopiya, Nanofotonikalarni *bilishi* kerak.

#### **Tinglovchi:**

- nurlanish manbalaridan foydalanish;

- optik nurlolali datchiklarni ishlashini tahlil etish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- fotonlarni qabul qilish;
- optik nurlolali aloqa tizimlarinidan amaliyotda foydalanish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

- fotonikaning zamonaviy masalalarini o'zlashtirish;
- fotonni teleportasiya qilishga mo'ljallangan eksperimental qurilmalardan foydalanish;
- kvant interneti va kvant kompyuterlarini qo'llash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

**Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, o'tkaziladigan amaliy va ko'chma mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

**Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Fotonikaning zamonaviy masalalari” kursi o'quv rejadagi Nanotexnologiyaning fizikaviy asoslari va amaliyotda qo'llanishi kabi mutaxassislik fanlarining sohalari bilan uzviy bog'langan xolda pedagoglarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini tashkil etishda yangicha yondashuv asoslarini va bu boradagi ilg'or tajribani o'rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir yangi bilimlarga ega bo'lishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot

1.	<b>Fotonika tarixi</b>	4	2	2
2.	<b>Optik nurlolalar</b>	4	2	2
3	<b>Amaliy fotonika</b>	4	2	2
4	<b>Kvant interneti va kvant kompyuterlari</b>	6	2	4
	<b>Jami:</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-Mavzu: Fotonika tarixi (2 soat)

- 1.1. Fotonika tarixi. Lazer fizikasi va fotonika asoslari.
- 1.2. Fotonika usullari va asosiy yo‘nalishlari
- 1.3. Nurlanish manbalari. Nurdiod

### 2-Mavzu: Optik nurlolalar (2 soat)

- 2.1. Lazerli diod. Fotonlarni qabul qilish. Bir jinsli muhit optikasi.
- 2.2. Optik nurlolalar. Optik nurlolali aloqa tizimlari. Optik nurlolali datchiklar.

### 3-Mavzu: Amaliy fotonika (2 soat)

- 3.1. *Optik giroskoplar. Kvant chigallik. Kvant interferensiya.*
- 3.2. *Kvant interferensiya. Fotolni teleportatsiya qilishga mo‘ljallangan eksperimental qurilmalar.*

### 4-Mavzu: Kvant interneti va kvant kompyuterlari (2 soat)

- 4.1. *Kvant interneti va kvant kompyuterlari.*
- 4.2. *Kremniyli fotonika. Nanoskopiya. Nanofotonika.*
- 4.3. *Bir fotonli nurlanish manbalari.*

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-Mavzu: Fotonika tarixi (2 soat)

- 1.1. Fotonika tarixi. Lazer fizikasi va fotonika asoslari.
- 1.2. Fotonika usullari va asosiy yo‘nalishlari
- 1.3. Nurlanish manbalari. Nurdiod

### 2-Mavzu: Optik nurlolalar (2 soat)

- 2.1. Lazerli diod. Fotonlarni qabul qilish. Bir jinsli muhit optikasi.
- 2.2. Optik nurlolalar. Optik nurlolali aloqa tizimlari. Optik nurlolali datchiklar.

### 3-Mavzu: Amaliy fotonika (2 soat)

- 3.1. *Optik giroskoplar. Kvant chigallik. Kvant interferensiya.*
- 3.2. *Kvant interferensiya. Fotolni teleportatsiya qilishga mo‘ljallangan eksperimental qurilmalar.*



#### **4-Mavzu: Kvant interneti va kvant kompyuterlari (4 soat)**

4.1. *Kvant interneti va kvant kompyuterlari.*

4.2. *Kremniyli fotonika. Nanoskopiya. Nanofotonika.*

4.3. *Bir fotonli nurlanish manbalari.*

#### **O‘QITISH SHAKLLARI**

**Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:**

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

### “KWHL” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

**Izoh. KWHL:**

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo‘ladi?*

*Learn - nimani o‘rganib oldim?*

“KWHL” metodi	
<p><b>1. Nimalarni bilaman:</b></p> <p>-</p>	<p><b>2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</b></p> <p>-</p>
<p><b>3. Qanday qilib bilib va topib olaman:</b></p> <p>-</p>	<p><b>4. Nimalarni bilib oldim:</b></p> <p>-</p>

### “W1H” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun?	

	(ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



2.1-rasm.

### “VEER” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади:



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзу яқунланади.

### 2.2-rasm.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni

amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>


### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



2.3-rasm.

### “Insert” metodi

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta‘lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta‘lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta‘lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

#### 1-Mavzu: Fotonika tarixi


##### *REJA*

- 1.1. Fotonika tarixi. Lazer fizikasi va fotonika asoslari.
- 1.2. Fotonika usullari va asosiy yo‘nalishlari
- 1.3. Nurlanish manbalari. Nurdiod.

**Tayanch iboralar:** *Fotonika, laser, fotodiod, nurdiod, optic nurtola, kvant texnologiya.*

#### 1.1. Fotonika tarixi. Lazer fizikasi va fotonika asoslari.

Fotonika nisbatan yosh fan. Uning paydo bo‘lishi 1960-yillarda lazer ixtirosi bilan bevosita bog‘liq. Aytishimiz mumkinki, bu voqea fotonikaning fan sifatida rivojlanishiga turtki berdi. 60 yillik faoliyati davomida u katta yo‘lni bosib o‘tdi va tadqiqotning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. So‘nggi yillarda tibbiyot, fizika, kimyo, muhandislik va boshqa sohalarda ko‘plab kashfiyotlar fotonika tufayli amalga oshirildi.




*Optik nurtolada nur tarqalishi.*

Dastlab fotonika faqat telekommunikatsiya sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan tor yo‘nalish sifatida taqdim etilgan. Shu kunlarda u turli xil fundamental va amaliy muammolarni hal qiladi. Ularning aksariyati foton axborot tashuvchisi bo‘lgan tizimlardan foydalanish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq.

"Fotonika" atamasi birinchi marta 1967-yilda A. N. Terenin tomonidan ishlatilgan. U fotonikani "oʻzaro bogʻliq fotofizik va fotokimyoviy jarayonlar toʻplami" deb taʼriflagan. Zamonaviy, kengroq maʼnodagi talqini, 1970-yilda tezkor fotosuratlar boʻyicha 9 xalqaro Kongressda taqdim etilgan.

Lazer diodi, optik tola va optik signalni kuchaytirish moslamalarining ixtiroi - bularning barchasi fotonikaning paydo boʻlishi uchun qulay sharoit yaratgan shartlardir. 1980-yillarda Internetning faol rivojlanishi yosh fotonikaning jadal kengaytirishga turtki boʻldi.



*Lazer diod*

Hozirgi vaqtda u qamrab olgan vazifalar telekommunikatsiya sohasi bilan cheklanmaydi va quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- lazer uskunalari ishlab chiqarish va qoʻllash;
- biologik, fizik, kimyoviy va boshqa tadqiqotlar;
- optik hisoblash;
- ekologik monitoring;
- tibbiy diagnostika va terapiya;
- termoyadroviy energiya;
- harbiy texnika;
- optik giroskoplar va boshqalar.

*Fotonika nimani oʻrganadi?*

Fotonika – bu ham texnologiya va fan va texnikaning sohasidir. Ikkala holatda ham optik signallarni yaratish, oʻzgartirish va aniqlash uchun turli xil qurilmalardan (optik komponentlar, lazerlar, elektro-optik va boshqalar) foydalanish nazarda tutilgan.

Shunday qilib, fotonika:



- fotonlarni kogerent nurlanish manbalar bilan hosil qilish jarayonlarini (lazerlar);
- optik nurlanishning fazoda yoki optik tolalarda tarqalish jarayonlarini;
- elektro-optik, elektroakustik va optik nurlanishni modulyatsiya qilishning boshqa usullarini;
- optik nurlanishning chiziqli bo‘lmagan muhitlar bilan o‘zaro ta‘sirini;
- optik nurlanishni aniqlashni o‘rganadi.

Fotonika ko‘p jihatdan amaliy fan. Fotonikadan oldin hech kim yorug‘lik bizning hayotimizda qanchalik foydali bo‘lishi mumkinligini o‘ylamagan. Eng yangi texnologiyalar tobora ko‘proq yorug‘likdan foydalanishga intilmoqda. Biz allaqachon ma‘lumotni yorug‘lik tezligida juda katta masofalarga qanday etkazishni bilamiz. Va tez orada biz uni shifrlashni o‘rganamiz, shunda hech kim bizni "tinglay olmaydi". Yorug‘lik texnologiyasi yordamida turli xil jiddiy kasalliklarni davolashga o‘tiladi. Endi eng murakkab operatsiyalar paytida jarrohlar eng aniq kesiklarni amalga oshirish uchun lazer skalpellaridan foydalanadilar. Fotonikaning yutuqlari o‘simtani olib tashlash yoki arteriyani davolash uchun hech qanday jarroxlik qilmaslikka imkon beradi. Fotonika tufayli chuqur kosmik tadqiqotlar biz uchun unchalik erishib bo‘lmaydigan maqsad emas.

## **1.2. Fotonika usullari va asosiy yo‘nalishlari. Lazer fizikasi va fotonika asoslari**


Fotonika yorug‘likning kvant tabiatini hisobga olgan holda materiya bilan o‘zaro ta‘sirini o‘rganadi. Foton aslida elektronning analogidir, elektronlar o‘rniga elektromagnit maydon kvantlari - fotonlar ishlatiladi. Zamonaviy kvant optika (fotonika) foton signallarni qayta ishlash texnologiyalari bilan shug‘ullanadi.

Aloqa tizimlari bizning dunyomizni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Axborot uzatish kanallari turli xil axborot tarmoqlarini yagona global Internetga bog‘lab, sayyoramizni tom ma‘noda o‘rab oladi. Zamonaviy texnologiyalarning g‘aroyib dunyosi kvant dunyosining hayratlanarli imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan fan va texnikaning zamonaviy kashfiyotlarini o‘z ichiga oladi. Aytish mumkinki, bugungi kunda kvant texnologiyalari bizning hayotimizga qat‘iy kirib bordi. Bizning cho‘ntaklarimizdagi har qanday mobil qurilmalar kvant zaryad tunnel yordamida ishlaydigan xotira chipi bilan jihozlangan.

## **1.3. Nurlanish manbalari. Nurdiod**

Yorugiik diodi nomonoxromatik va nokogerent nurlanish manbayi boiib, uni tayyorlashda GaAs, GaAlAs, InGaAsP, GaP, SiC kabi to‘g‘ri zonah yarimo‘tkazgich materiallardan foydalaniladi. Rasmda GaAs asosidagi yorugiik

diodining odatiy tuzilishi ko'rsatilgan. U n turdagi GaAs qatlami sirtiga rux atomlarini diffuziya qilib, p - GaAs qatlamini shakllantirish va shu tariqa p-n o'tishli tuzilma hosil qilish y o i i bilan tayyorlanadi. So'ngra p - GaAs v an - GaAs qatlamlarining tashqi sirlari mos ravishda aluminiyli va AuGe aralashmali pardasimon metallashtirilgan qatlamlar bilan qoplanadi va ularga oltin simli chiqqichlar o'rnatiladi. Asbob asosini tashkil etgan kristallning yuza sirti o'lchamlari 0,3 - 0,5 mm li kvadrat ko'rinishiga ega bo'ladi.



Tolali optik aloqa tizimlarida nurlanuvchi sirt yuzasi nisbatan kichik o'lchamli ( $J=50 \text{ mkm}$ ) yorug'lik diodlaridan foydalaniladi. Buning uchun yorug'lik diodi emitter sohasi (p - GaAs sohasi)ning chetki qismlari protonlar bilan bombardimon qilinadi. Natijada bu qismlar nurlanish sohasini cheklovchi amorf tuzilishli dielektrik qatlamga aylanadi.

Injeksion yorug'lik diodi (uni bundan keyin qisqacha qilib, yorug'lik diodi deb ataymiz) p-n tuzilishli optoelektron asbob bo'lib, uning ish mexanizmi to'g'ri ulangan p-n o'tish orqali n sohadan p sohaga injeksiyalanayotgan elektronlar va p sohadan n sohaga injeksiyalanayotgan kovaklarning o'zaro rekombinatsiyasi jarayonidan foydalanishga asoslangan. Bu jarayon natijasida elektronlar yuqori energiyali qo'zg'algan holatdan (o'tkazuvchanlik energetik sohasidan) quyi energiyali qo'zg'almagan holatga (valent elektronlarining energetik sohasiga) o'tib, p-n o'tish va unga yaqin hajmiy fazoda energiyasi quyidagi munosabat bilan aniqlanadigan fotonlar - yorug'lik nurlanishi hosil bo'ladi:

$$h\nu \geq \Delta W_{mes}$$

bunda

$h$  — Plank doimiysi;  $\nu$  — yorug‘lik chastotasi;

$W_{mes}$  — yarimo‘tkazgich materiali man etilgan energetik sohasining kengligi.

### **Nazorat savollari**

1. Fotonika so‘zi qachon paydo bo‘lgan?
2. Fotonika nimalarni o‘rganadi?
3. Fotonika usullari va asosiy yo‘nalishlari ayting?
4. Nur diod qanday ishlaydi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Skalli M. O., Zubayri M. S. Kvantovaya optika: Per. s angl. / Pod red.V.V. Samarseva. - M.: FIZMATLIT, 2003. - 512 s.
2. Barsukov, V.I.Fizika. Volnovaya i kvantovaya optika : uchebnoye posobiye /V.I. Barsukov, O.S. Dmitriyev. – Tambov : Izd-vo FGBOU VPO “TGTU”, 2012. – 132 s.
3. Samarsev V.V. Korrelirovannyye fotony i ix primeneniye. M.: FIZMATLIT, 2014. — 168 s.
4. Kuznetsov S.I. Kvantovaya optika. Atomnaya i yadernaya fizika. Fizika elementarnyyx chastis: uchebnoye posobiye. – Tomsk: Izd-vo TPU, 2007. – 154 s.

## 2-Mavzu: Optik nurlolar

### **REJA**


- 1.4. Lazerli diod. Fotonlarni qabul qilish. Bir jinsli muhit optikasi.
- 1.5. Optik nurlolar. Optik nurlolali aloqa tizimlari. Optik nurlolali datchiklar.

**Tayanch iboralar:** *Lazerli diod optic nurlola, Sanyak effect, Optik nurlolali datchiklar*

### **1.1. Lazerli diod. Fotonlarni qabul qilish. Bir jinsli muhit optikasi**

Yarimo'tkazgichli lazer diodining ixtiroosi o'tgan asrning ikkinchi yarmida fizika sohasidagi eng yaxshi yutuqlardan biri deb hisoblanadi. Yarim asrdan ko'proq vaqt oldin amalga oshirilgan qattiq jisimli materiallarning optik nurlanishi sohasidagi sovet va amerikalik olimlarning mustaqil ishlanmalari bugungi kunda ularning ichki, sanoat va harbiy sohalarda samaradorligini ko'rsatmoqda. Fotonlarning o'z-o'zidan nurlanishiga asoslangan yorug'lik chiqaradigan diodlardan farqli o'laroq, lazer diodlari yanada murakkab ishlash printsipi va kristall tuzilishga ega.

Yarimo'tkazgichli lazerning asosiy tuzilishi rasmda ko'rsatilgan. P - va n-tipli (ikki tomonlama heterostruktura) qatlam-qatlamlari orasiga joylashtirilgan faol qatlam (yorug'lik chiqaradigan qatlam) n-tipli substratda hosil bo'ladi va kuchlanish p-n ga beriladi. Faol qatlamning ikkala qirradi ham oyna yuzasiga ega. To'g'ri kuchlanish qo'llanilganda, elektronlar pn o'tishdagi kovaklarga joylashadi va yorug'lik chiqaradi. Bu yorug'lik hali lazer emas, u faol qatlam ichida cheklangan, chunki qoplama qatlamlarining sindirish ko'rsatkichi faol qatlamga qaraganda past. Bundan tashqari, faol qatlamning ikkala uchi ham aks ettiruvchi oyna vazifasini bajaradi, bunda yorug'lik faol qatlamda o'zaro harakat qiladi. Keyin yorug'lik stimulyatsiya qilingan nurlanish jarayonida kuchayadi va lazer nurlanishi hosil bo'ladi.



Yarimoʻtkazgich sifatida kremniy oʻrniga boshqa materialdan, yaʼni alyuminiy va galliy arsenid qotishmasidan foydalaniladi (yana bir mashhur tanlov-indiy galliy arsenid fosfidi). Elektronlar diodga kiritiladi, kovaklar bilan bogʻlanadi va ularning ortiqcha energiyasining bir qismi fotonlarga aylanadi, ular koʻproq kiruvchi elektronlar bilan oʻzaro taʼsir qiladi va koʻproq fotonlar ishlab chiqarishga yordam beradi - va hokazo rezonans deb ataladigan oʻz-oʻzini takrorlaydigan jarayonda. Bu kiruvchi elektronlarning chiquvchi fotonlarga qayta-qayta aylanishi oddiy gaz lazerida sodir boʻladigan stimulyatsiya qilingan nurlanish jarayoniga oʻxshaydi.

Fotonlar qayerdan kelganini tushunish uchun rekombinatsiya jarayonini eslang (bir juft erkin tashuvchilar - elektron va kovakning xosil boʻlishi). Diodning pn oʻtishiga toʻgʻri kuchlanish berilganda, inʼektsiya sodir boʻladi, yaʼni. muvozanatsiz tashuvchilar konsentratsiyasining keskin oshishi. Inyeksiya jarayonida bir-biriga qarab harakatlanuvchi elektronlar va kovaklar rekombinatsiyalanib, zarracha - foton va kvazizarra - fonon shaklida energiya chiqaradi. LEDlarda kuzatilgan spontan emissiya shunday sodir boʻladi.




Yagona fotonli koʻchki diodi (SPAD) fotodiodlar va koʻchki fotodiodlari (APDs) bilan bir xil oiladagi qattiq holatdagi fotodetektor boʻlib, ayni paytda asosiy diodlarning xatti-harakatlari bilan bogʻliq. Fotodiodlar va APDlarda boʻlgani kabi, SPAD gamma, rentgen nurlari, beta va alfa zarralari kabi ionlashtiruvchi nurlanish

va ultrabinafsha (UV) dan elektromagnit spektrning keng qismi bilan yoritilishi mumkin bo'lgan yarim o'tkazgichli pn birikmasi atrofida joylashgan. ko'rinadigan to'liq uzunliklari orqali va infraqizil (IR) ga.

Past teskari kuchlanishli fotodiodda qochqin oqimi fotonlarning yutilishi bilan chiziqli ravishda o'zgaradi, ya'ni ichki fotoelektrik effekt tufayli oqim tashuvchilar (elektronlar va / yoki teshiklar) . Biroq, SPADda teskari moyillik shunchalik yuqoriki, zarba ionizatsiyasi deb ataladigan hodisa yuzaga keladi va bu ko'chki oqimining rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Oddiy qilib aytganda, foto-hosil bo'lgan tashuvchi qurilmadagi elektr maydoni ta'sirida kinetik energiyaga tezlashadi, bu esa ommaviy materialning ionlanish energiyasini engib, atomdan elektronlarni urib yuborish uchun etarli. Joriy tashuvchilarning katta ko'chkisi eksponent ravishda o'sib boradi va bitta foton bilan boshlangan tashuvchidan kelib chiqishi mumkin. SPAD hisoblanishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli tetik pulslarini ta'minlaydigan yagona fotonlarni aniqlay oladi. Shu bilan birga, ular ko'chkining yuqori tezligi va qurilmaning past vaqt jitteri tufayli hodisa fotonning kelish vaqtini olish uchun ham ishlatilishi mumkin.

## 1.2. Optik nurlolar. Optik nurtolali aloqa tizimlari. Optik nurtolali datchiklar

Ma'lumki yorug'lik, biror bir muhitda, to'g'ri chiziq bo'ylab tarqaladi. Ikki muhit chegarasida, masalan, havodan suvga, shishaga tushayotganda, yorug'likning qaytishi, sinishi va yutilishi kuzatiladi.



Agar yorug'lik sindirish ko'rsatkichlari  $n_1$  va  $n_2$  shaffof ikki muhit chegarasiga tushayotgan bo'lsa, u qisman qaytadi, qisman sinadi. Qaytish burchagi tushish burchagiga teng, sinish burchagi esa muhitlarning sindirish ko'rsatkichlari nisbatiga bog'liq (hamma burchaklar tekislikka o'tkazilgan normalga nisbatan o'lchanishini ta'kidlaymiz).

Sinellius qonuniga ko'ra, tushish va qaytish burchaklari muhitlar sindirish ko'rsatkichlari bilan quyidagicha:

$$n_1 \sin \theta_1 = n_2 \sin \theta_2, \text{ bundan } \sin \theta_2 = \left( \frac{n_1}{n_2} \right) \sin \theta_1 \quad (1)$$


bogʻlangan. Agar  $n_1 < n_2$  va  $|\sin\theta_1| < 1$ , u holda  $|\sin\theta_2| < 1$ . Lekin  $n_1 > n_2$ , yaʼni yorugʻlik optik zichligi kattaroq muhitdan, optik zichligi kichikroq boʻlgan muhitga oʻtsa, unda  $\theta_1$  tushish burchagi oʻzgarishida shunday payt boʻladiki  $\sin\theta_1 = 1$  va (1) ga asosan  $\sin\theta_2 > 1$ , boʻlishi mumkin boʻlmagan holga kelib qolamiz, sababi sinusning maksimal qiymati  $\sin\theta_2 = 1$ . Demak,

$$\sin\theta_{1kp} = \frac{n_2}{n_1}, \quad (2)$$

bunda,  $\theta_{1kp}$  chegaraviy (kritik) burchak deyiladi. Endi nur ikki muhit chegarasiga shu kritik  $\theta_{1kp}$  burchakdak katta burchaklarda tushsa, ikkinchi muhitga oʻtmaydi va ajratuvchi chegaradan toʻla qaytadi. Bu hoʻdisa *toʻla ichki qaytish effekti* deyiladi.

Agar sindirish koʻrsatkichi  $n_1$  boʻlgan qatlam, sindirish koʻrsatkichlari  $n_2$  boʻlgan qatlamlar orasida joylashgan boʻlsa, u holda yorugʻlik nuri, sindirish koʻrsatkichi  $n_1$  boʻlgan oʻrtadagi qatlamda tarqaladi. Optik nurlalarda nurlarning tarqalishi xuddi shunga asoslangan.

Optik nurtola turli optik xarakteristikalariga ega oʻzak va qobiqdan iborat.



Oʻzak elektromagnit energiyani uzatish vazifasini bajaradi. Qobiqning vazifasi: "oʻzak-qobiq" chegarasida nurning yaxshi qaytishini taʼminlovchi sharoitni yaratish va atrof muhitga energiyaning nurlanishidan himoya qilish. Qobiq ham tashqaridan himoya qatlami bilan oʻralgan boʻlib, uning vazifasi optik nurtolani mexanik va boshqa turli taʼsirlardan himoya qilishdan iborat.

Nurtolaga kiritilayotgan nur, uning oʻzagida toʻla qaytib tarqalishi uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$0 \leq \theta \leq \arcsin \sqrt{n_1^2 - n_2^2} = \theta_{\max} \quad (3)$$

O‘zak va qobiq sindirish ko‘rsatkichlarining farqi juda ham kichik  $\sim 0,01$  bo‘lgani uchun,  $\theta_{\max}$  kattalikni quyidagicha yozish mumkin:

$$NA = \sin \theta_{\max} \approx \sqrt{n_1^2 - n_2^2}. \quad (4)$$


Bu optik nurtolaga kiritilayotgan nurlarning mumkin bo‘lgan maksimal burchagi. Bunday burchak *sonli apertura* deb ataladi va *NA* (Numeral Aperture) bilan belgilanadi. Odatda,  $n_1$  va  $n_2$  lar o‘rniga, sindirish ko‘rsatkichlarining nisbiy farqi degan kattalik ko‘proq qo‘llaniladi:

$$\Delta = \frac{n_1^2 - n_2^2}{2n_1^2} \approx \frac{n_1 - n_2}{n_2}. \quad (5)$$

Agar  $\Delta$  kattalikdan foydalaniladigan bo‘lsa, u holda *NA* va  $\Delta$  orasidagi bog‘lanishni quyidagicha yozish mumkin:

$$NA = n_1 \sqrt{2\Delta}. \quad (6)$$

Optik nurtolalarda elektromagnit to‘lqin dastalari optik o‘qqa nisbatan turli burchak ostida tarqalishiga qarab, *mo‘dalarga* ajratiladi. Optik nurtolalar, ularda tarqalayotgan mo‘dalar soniga qarab, *bir mo‘dali* va *ko‘p mo‘dali* nurtolalarga bo‘linadi.




Rasm.3.3. Optik nurtola turlari: a - bi mo‘dali; b - ko‘p mo‘dali, zinasimon; c - ko‘p mo‘dali, gradientli.



Rasm 3 da optik aloqa tizimlarida keng qoʻllaniladigan, optik nurtolalarning uch turi koʻrsatilgan. Nurtolalar optik aloqa tizimlaridan boshqa koʻplab sohalarda ham keng qoʻllanilishini taʼkidlab oʻtish lozim. Masalan, turli fizik maydonlarni qayd etuvchi nurtolali optik datchiklar, nurtolali optik giroskoplar, optik asbobsozlik va boshqalar. Bir moʻdali nurtola oʻzaginging diametri 2÷8 mkmga, koʻp moʻdalini esa 50 mkmga teng.

Birmoʻdali nurtolar nurni oʻtkazish qobiliyati va uzoqqa oʻzlash parametrlari boʻyicha eng yaxshi koʻrsatkichlarga ega. Gradiyentli nurtolalarda oʻzakning sindirish koʻrsatkichi, markazdan radius boʻylab periferiyagacha, bir tekisda kamayib boradi. Gradiyentli nurtolalarda nurning tarqalish traektoriyasi toʻlqinsimon egri chiziqdan iborat boʻladi (rasm 3c).

Zinasimon koʻp moʻdali nurtola orqali optik impuls (yorugʻlik chaqnashi) tarqalishida (rasm 4.), optik nurtola oʻqiga nisbatan kichik burchak ostida tarqalayotgan moʻdalarning optik yoʻli, oʻq bilan katta burchak hoʻsil qilib tarqalayotgan moʻdalar optik yoʻlidan kam boʻladi. Oqibatda, ularning tarqalish vaqti orasida farq yuzaga kelib, nurtola kirishidagi qisqa toʻgʻri toʻrtburchak koʻrinishdagi optik impuls, nurtola chiqishida uzayadi (davri ortadi). Bu hodisa **moʻdalar dispersiyasi**, bunday dispersiya hosil boʻladigan nurtolalar - **koʻp moʻdali** deyiladi.



Rasm.3.4 Optik impulsning nurtoladan oʻtishida kengayishi


Moʻdalar dispersiyasi optik nurtola orqali uzatiladigan informatsiyani uzatish tezligini kamaytiradi. Informatsiya uzatish tezligini orttirish uchun nurtola diametrini bir necha mikrongacha kamaytiriladi. Bunday nurtolalarda moʻdalar faqatgina optik nurtola oʻqi bilan kichik burchaklar hoʻsil qilib

tarqaladi va informatsiyani uzatish tezligi ortadi. Bunday nurtolalar *bir mo‘dali* deyiladi.

### Sanyak effekti

Yorug‘lik tezligiga, kuzatuvchi to‘g‘ri chiziqli tezligining ta‘sirini o‘rganishga bag‘ishlangan klassik tajribalardan keyin, analogik tajribalar tekis aylanma harakatlar uchun ham tadqiq etilgan. Bunday tajriba Sanyak tomonidan 1913-yili bajarilgan. Nisbiylik nazariyasi asosinng eksperimental tasdiqi bo‘lgan, Maykelson tajribalari bergan salbiy natijalardan o‘laroq, Sanyak tajribalaridan oddiy hisoblashlar bilan mos keluvchi ijobiy natija olingan.

Tajribaning g‘oyasi 5 rasmda keltirilgan interferometrning aylanishida interferension manzarani kuzatishdan iborat bo‘lgan. Sanyak qurilmasi 4 ta ko‘zgu va bitta, nurni bo‘luvchi yarim shaffof ko‘zgudan tashkil topgan. Bunday sxema, rasm 3.5 dan ko‘rinishicha nurlarni kontur bo‘ylab soat strelkasi va unga teskari yo‘nalishlarda tarqalishiga, so‘ngra ularni bir joyda uchrashtirish imkonini beradi.




Rasm 3.5

Qurilma to‘g‘ri sozlanganda, kontur aylanmay tinch tursa, har ikki nur teng yo‘llarni o‘tadi va fazalar farqi bo‘lmaydi, ya‘ni bir vaqtda keladi. Kuzatilayotgan interferension manzaralarni suratga olib, so‘ngra butun interferometrni ma‘lum burchak tezlik bilan aylantirib, yana interferension manzaralarni suratga olish mumkin. Tajriba natijalariga ko‘ra, hattoki juda kichik burchak tezliklarda ham, aylanish hisobiga yuzaga kelgan faza farqini yoki boshqacha aytganda kontur perimetrining effektiv uzunligini topishga

imkon beruvchi, interferension kengliklarning siljishi kuzatilgan. Bu hodisa *Sanyak effekti* nomini olgan.

Kashf etilganidan yarim asr o‘tib Sanyak effekti, uni burchak tezliklarni optik o‘lchashga tadbiiq etish mumkinligi bilan, yana ko‘plab tadqiqotchilar diqqatini torta boshladi. Optik giroskoplarni, bugungi kunda mukammal ko‘rinishga ega bo‘lib, ko‘pgina parametrlari bo‘yicha mexanik giroskoplardan ustun turadi.



Rasm 3.6

Sanyak effektining sodda nazariyasi bilan tanishaylik. Sanyak tajribasida optik kontur to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishida bo‘lgan, lekin biz hisoblashlarni soddalashtirish maqsadida, uni rasm 6 dagidek aylana bilan almashtiramiz va unda yorug‘likning soat strelkasi va unga teskari yo‘nalishda tarqalishi mumkin bo‘lgan, hayoliy tajribani ko‘ramiz.

Real tajribada ko‘p o‘ramli optik nurlar g‘altagi ishlatiladi. Hayoliy tajribada esa, markazidan, uning tekisligiga perpendikulyar o‘tuvchi o‘q atrofida  $\Omega$  burchak tezlik bilan soat strelkasi yo‘nalishida aylanuvchi, bitta o‘ram mavjud. Qulaylik uchun, yorug‘likning soat strelkasi yo‘nalishi bo‘yicha tarqalish tezligini  $c_b$ , teskari yo‘nalish bo‘yicha tarqalish tezligini  $c_T$  deb belgilab olamiz. Faraz qilaylik, fotonlar, o‘ram kesimining 1 deb belgilangan nuqtasidan, soat strelkasiga teskari yo‘nalishda start olgan bo‘lsin. Ular start olgan 1-chi nuqta bilan kesimning 2 holatida yana uchrashishadi. Startdan uchrashguncha ketgan vaqtni  $t_T$  deb belgilab, foton bosib o‘tgan yo‘l uchun quyidagi ifodani yoza olamiz:

$$2\pi R - \Omega R t_T = c_T t_T . \quad (7)$$

Bundan

$$t_T = \frac{2\pi R}{c_T + \Omega R} . \quad (8)$$

Xuddi shunday tenglama soat strelkasi yoʻnalishida tarqaluvchi fotonlar uchun quyidagicha boʻladi:

$$t_b = \frac{2\pi R}{c_b - \Omega R}. \quad (9)$$

$\Omega R \ll c$  ekanligini eʼtiborga olib, fotonlar oʻramni soat strelkasi aylanishi va unga teskari yoʻnalishlarda oʻtishi uchun ketadigan vaqtlar farqini, topamiz:

$$t_b - t_T = \Delta t = 2\pi R \frac{c_T - c_b + 2\Omega R}{c_T c_b} \quad (10)$$

Agar, soat strelkasi va unga teskari yoʻnalishlarda tarqaluvchi yorugʻlik tezliklarining bir xil ekanligini va  $c$  ga teng ekanligini hisobga olsak, (3.10) formula soddalashib, quyidagicha koʻrinishda boʻladi:

$$\Delta t = 4 \frac{S}{c^2} \Omega, \quad (11)$$

bunda  $S$  - oʻram yuzasi.

